

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

E.Bozorov, M.Axmadjonov Tibbiyot elektronikasi fanining samaradorligini oshirishida “hamkorlikda” o‘qitish texnologiyasining o‘rni	233
N.Abdukarimova, Sh.Shuxratov Texnik mexanika fanini texnologik ta’lim yo‘nalishida o‘qitish uslubiyoti	238
N.Raxmatova, Sh.Shuxratov Texnologiya ta’limida innovatsion yondoshuv asosida o‘quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish	242
B.Mamatojyeva, Sh.Shuxratov Yog‘och materiallaridan murakkab bo‘lmagan detallar va buyumlar tayyorlash texnologiyasi	248
Sh.Ashirov, D.Mirzayev Akademik litseylarda fizika fanini o‘qitishda integrativ darslar mazmunini takomillashtirish	253

KIMYO

D.Abbasova, A.Ibragimov, O.Nazarov Ephedra Equisetina bunge o‘simligidan ajratib olingan efedrin alkaloidi.....	257
M.Ismoilov Qatronlar va neft kislotalari uchun adsorbentlar	262
N.Dexkanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova, Nax seolit vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi	267
H.Qurbonov, M.Rustamov, D.Gafurova, M.Mirzoxidova Poliakrilonitril asosida yong‘inga chidamli polimer mato olish	274
I.Asqarov, M.Akbarova, Z.Smanova Qon bosimining oshishi kasalligida ishlatiladigan sintetik dorilarning inson organizmiga ta’siri	279
I.Askarov, N.Tulakov, Z.Abduraimov, N.Islamova 1'-karboksiferrotsenil tiokarboksamid sintezi	283
H.Rahimova, A.Ibragimov <i>Phlomoidea Canescens</i> o‘simligining uchuvchan moddalarini tadqiq etish	289
N.Qutlimuratov Mahalliy xomashyolar va chiqindilar asosida olingan anionitning kimyoviy barqarorligi va sorbsion xossasi.....	293
M.Jo‘rayev, S.Xushvaqtoev Polivinilxlorid plastik asosida olingan sorbentning fizik-kimyoviy xossalari	299
I.Asqarov, G‘.Madrahimov, M.Xojimatov O-ferrotsenil benzoy kislotasini ayrim hosilalarining biologik faolligini o‘rganish.....	304
S.Mukhammedov, I.Askarov, Kh.Isakov, M.Mamarakhmonov Furfurolidenkarbamidning elektron tuzilishi va kvant-kimyoviy xisobi	308
O.Tursunmuratov, D.Bekchanov Vermikulit asosida olingan yangi ionitga cu^{2+} ionlarining sorbsiya kinetikasi va izotermasi	311
M.Ismoilov Karaulbozor neft fraksiyalarini tahlili	315
M.Axmadaliyev, N.Yakubova Ishqoriy muhitda furfurolning kondensatsiyalanishi	322
B.Nu‘monov Fosforkislotali-gipsli bo‘tqasini koversiyalash asosida kompleks o‘g‘itlar olish	328
Sh.Yarmanov, S.Botirov, D.Bekchanov Tabiiy polimerlar asosida biosorbentlar olinishi va qo‘llanilishi.....	335
G‘.Xayrullayev, Sh.Kadirova, B.Torambetov, S.Botirova, Sh.Mavlonova 3,3'-disulfanidilbis (1 <i>h</i> -1,2,4-triazol-5-amin) sintezi.....	341

GEOGRAFIYA

Y.Axmadaliyev Mahalliy aholining shaharsozlik an‘analarida landshaft omilining o‘rni	346
K.Boymirzayev, H.Naimov Farg‘ona botig‘i yoyilma landshaftlarining geografik o‘rganilishi va tadqiq etilishi	352

MAHALLIY AHOLINING SHAHARSOZLIK AN'ANALIRIDA LANDSHAFT OMILINING O'RNI

РОЛЬ ЛАНДШАФТНОГО ФАКТОРА В ГОРОДСКИХ ТРАДИЦИЯХ МЕСТНОГО НАСЕЛЕНИЯ

THE ROLE OF THE LANDSCAPE FACTOR IN URBAN TRADITIONS OF THE LOCAL POPULATION

Axmadaliyeva Yusupjon Ismoilovich¹¹Axmadaliyeva Yusupjon Ismoilovich

– Farg'ona davlat universiteti r.f.d., professor.

Annotatsiya

Maqolada Farg'ona vodiysi mahalliy aholisining aholi maskanlarini yaratishda landshaft omili imkoniyatlaridan foydalanish malakalari haqida fikr yuritilgan. Vodiydagi shaharlarni vujudga kelishida tabiiy sharoitga moslashib borish, uning chorlovchi imkoniyatlaridan sanalgan suv resurslaridan foydalanish masalalari yoritilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются умения местного населения Ферганской долины использовать возможности ландшафтного фактора при создании поселений. Вопросы приспособления к природным условиям, использования водных ресурсов, которые считаются его задачей, освещаются при формировании городов долины.

Abstract

The article discusses the ability of the local population of Ferghana Valley to use the possibilities of the landscape factor when creating settlements. The issues of adaptation to natural conditions, the use of water resources, which are considered its task, are covered in the formation of the cities of the valley.

Kalit so'zlar: Landshaft omili, aholi maskani, qo'rg'on, demografik vaziyat, aholini joylashuvi.

Ключевые слова: Ландшафтный фактор, поселение, крепость, демографическая ситуация, размещение населения.

Key words: Landscape factor, settlement, fortress, demographic situation, population distribution.

KIRISH. Aholi maskanlarining hududiy joylashishida yer yuzasining kishilar tomonidan o'zlashtirilishi juda uzoq vaqt davom etadigan tarixiy jarayon hisoblanib, u hududning o'zlashtirilishi bilan bevosita bog'liqdir. Shundan kelib chiqib, Farg'ona vodiysidagi aholi maskanlari yuzaga kelishida ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan balandlik pog'onalariga asoslangan etnoekologik mintaqalarning ta'sirini kuzatish mumkin. O'zlashtirish dastlab, vodiyning yuqori, uchinchi qisman to'rtinchi, etnoekologik mintaqalarida chorvachilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik hamda, lalmikor dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi tomonidan boshlanganligini adabiyotlarda ta'kidlanadi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Farg'ona vodiysini tadqiq etish juda qadimga borib taqalsada, uning bugungi qiyofasining shakllanishi haqidagi tadqiqotlar ko'proq ikkinchi jahon urishidan keyingi izlanishlar natijasida amalga oshdi. Hududdagi shaharsozlik, yo'llar qurish va aholi punktlarni joylashtirish ishlarida tub joy aholining tarixiy tajribalariga tayanish xususida ko'plab tadqiqotchilar izlanish olib borgan. Xususan, tarixchilardan S.Gubayeva (1983, 1991), U.Abdullayev, G.Valixonova (2016) kabi tadqiqotchilar vodiydagi aholi manzilgohlarining joylanishi bo'yicha ma'lumotlari ahamiyatli hisoblanadi. Mahalliy aholining hududni sug'orish tizimi haqida ma'lumotlarni V.V.Bartold (1965) ma'lumotlarida ko'p uchraydi. Mahalliy aholining etnik xususiyatlarni K.Sh.Shaniyazov (1974) tadqiqotlarida, hudud gidrologiyasi F.H.Hikmatov, B.Adenbayev (2008) tadqiqotlari uchraydi. Inson omili ta'sirida hudud landshaftlaridagi o'zgarishlar R.Y.Xoliqov (1989) ishlarida keng yoritilgan bo'lsa, Y.Usmonov (1995) ishlarida Farg'ona vodiysining bugungi holati chuqur taxlil etiladi.

Eng qadimgi Xitoy yozma manbalarida Farg'onada 70 ta «shahar» mavjud bo'lib, ularda, 60 ming oila yoki 300 ming aholi yashaganligi qayd etiladi. [1]. Bu shaharlarning aksariyat qismi ham Farg'ona vodiysining yuqoridagi to'rtinchi, uchinchi etnoekologik mintaqada joylashganligini ko'rish mumkin. Bu mintaqalardagi aholi maskanlarida aholi asosan chorvachilik, lalmikor dehqonchilik va tog' bog'dorchiligi bilan shug'ullangan. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholining yarim o'troq hayot kechirishi kuzatila boshlagandan so'ng, ularni vodiyning quyi qismlariga tushib, qishlov

GEOGRAFIYA

uchun o'zlariga alohida joy hozirlaganliklari kuzatilgan. Bunday aholi maskanlarida aholining qo'rg'onlar shaklidagi yashash joylari shakllangan. Ularning nomlarida ham ko'proq «qo'rg'on» so'zi qatnashganligini kuzatamiz [1]. Bunday «qo'rg'onlar» qish oylarida gavjum, savdo, hunarmandchilik rivojlangan qishloqlar ko'rinishida bo'lsa, boshqa oylarda aholining asosiy qismini tog'li yaylovlariga ko'chib ketishi kuzatilgan. Farg'ona vodiysining tog', adir, cho'l landshaftlari tutashgan mintaqasida olib borilgan toponimik tadqiqotlarimizda «qo'rg'on», «qo'rg'oncha» so'zlari qatnashgan 100 dan ortiq joy nomlari qayd etildi. Bu qo'rg'oncha shaklidagi aholi maskanlari ko'proq yarim o'troq qirg'iz, qipchoq, turk, qoraqalpoq kabi chorvador aholi uchun xos bo'lib, ular odatda, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'zbek va tojiklar yashaydigan qishloqlar yaqinida bunyod etilgan. Bu nomlarning aksariyat qismi uni tashkil etgan urug' yoki urug' oqsoqolining nomi bilan atalishi S.S.Gubayeva [6] (1983) tomonidan ta'kidlangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqotlarda No'g'ayqo'rg'on, Qipchoqqo'rg'on, Qirg'izqo'rg'on, Qozoqqo'rg'on kabi etnonimlarni, To'raqo'rg'on, Xonqo'rg'on, Xo'jaqo'rg'on, Yusufqo'rg'oncha, So'fiqo'rg'on kabi antroponimlarni vodiya ko'pligi aniqlanadi. Shuningdek, Farg'ona vodiysida Qizilqo'rg'on, O'rtaqo'rg'on, Qoziqo'rg'on toponimlari 2 martadan, Qoraqo'rg'on, Tepaqo'rg'on toponimlari 3 martadan, Uchqo'rg'on, Toshqo'rg'on toponimlari 4 martadan, Yangiqo'rg'on, Qo'rg'ontepa toponimlari 5 martadan, Qo'rg'oncha toponimi esa 12 marta toponim sifatida aholi maskanlariga qo'yilganligi yuqoridagi fikrlarni asoslaydi.


Ekologik nuqtainazardan yondashilganda, bunday aholi maskanlarining ikkita, ayrim holatlarda uchta landshaft mintaqasi chegarasida yuzaga kelishi haqidagi L.N.Gumilev [7] (1990) tomonidan oldinga surilgan etnoekologik qonuniyat Farg'ona vodiysida ham to'liq o'z ifodasini topganligini ko'rish mumkin. Tadqiq etilayotgan davrda yuzaga kelgan aholi maskanlari adir, tog', cho'l landshaftlari tutashgan joylarida shakllana boshlagan. Bularga Koson, Chodak, Aysi, O'sh, Aravon, Ershi, Quva, O'zgan, Pop kabi aholi maskanlarini misol qilib keltirish mumkin [8]. Bunday turli landshaft zonalarida joylashgan aholi maskanlarida aholi sonini ortishi bilan tabiatga tushadigan antropogen bosimning miqdorini meyorlashtirish e'tiborga olingan. Bu hududlarda yaylovlarni, tog' bog'dorchiligida foydalaniladigan «o'rmon-bog'lar» va lalmikor dehqonchilikdagi yerlar unumdorligi pasayib, degradatsiyaga uchrashining oldi olingan. Har bir landshaft zonasida uning «tabiati»ga mos holda foydalanishga asoslangan ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi hamda o'troq aholi istiqomat qiladigan aholi maskanlari yuzaga kelgan.

Bu aholi maskanlarida iqtisodiy aloqalar vertikal shaklda bo'lib, Farg'ona vodiysidagi yuqorida keltirib o'tilgan balandlik pog'onalariga mos keluvchi etnoekologik mintaqalardagi bu aloqalar vodiya sug'orma dehqonchilikning rivojlanishiga qadar saqlanib qolgan. Natijada to'rtinchi mintaqada Voruh, Isfara, Botkent, Shohimardon, So'x, Novqat, O'sh, Chodak, Chorkesar, Sefedbulon kabi aholi maskanlari orasida o'zaro bog'liqlik yuzaga kelib, bu aloqalar ular etnolandshaft mintaqalarda «mintaqaviy markaz»lar vazifasini bajargan. Shu bilan bir vaqtning o'zida, bu maskanlarga vodiya sug'orma dehqonchilik madaniyatining shakllanishi bilan bajaradigan funksiyalari ya'ni, mintaqaviy markaz funksiyasiga qo'shimcha ravishda «muqaddas ziyoratgohlar» vazifasi ham yuklatilgan.

Bu mintaqadan farqli ravishda uchinchi mintaqada yuzaga kelgan aholi maskanlarida nisbatan hunarmandchilik va savdoni, bog'dorchilikni ko'proq rivojlanishi kuzatildi. Misol tariqasida Rishton, Isfara aholi maskanlarini o'rganish mumkin. Adir va cho'l landshafti oraliqida shakllangan bu markazlarda ko'chmanchi aholi bilan birgalikda hunarmandchilikning (Rishton kulolchiligi) va bog'dorchilikning (Isfara o'rigini yetishtirish) rivojlanganligi tabiiy landshaftga og'irlik tushirmasdan aholi sonini ortirish imkoniyatini bergan. Shuning uchun bu markazlar atrofdagi boshqa aholi maskanlariga qaraganda tezroq rivojlanib borgan. Bundan tashqari Yaypan, Arsif, Quva, Mingtepa, Aravon, Koson, Yangiqo'rg'on, Chortoq, Olmos, Pop, Chust aholi maskanlarining har birida chorvachilik va dehqonchilikka qo'shimcha ravishda ma'lum bir ixtisoslashgan tabiiy resurslardan foydalanishga asoslangan hunar turi rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Yaypanda uzumchilik, vinochilik, Arsifda yong'oq yetishtirish, Quvada anorchilik, Mingtepa va Aravonda tandirchilik, yilqichilik, Kosonda kulolchilik, Yangiqo'rg'onida g'aynoli va ko'ksulton, Chortoqda pista va bodom yetishtirish, Chustda temirchilik (Damashq qilichlari), do'ppichilik, Olmosda olma yetishtirish kabi soha va kasblar keng rivojlanib, sayqallanib, to'plangan an'ana, ko'nikma va malakalar avloddan-avlodga berib borilgan [9].

Boshqa qurg'oqchil hududlarda kuzatilgani kabi Farg'ona vodiysida ham hududning dehqonchilikda o'zlashtirilishi va sug'orish tizimining rivojlanishi asosiy aholi maskanlari joylashishiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. XIX asrning oxiriga kelib, Farg'ona vodiysidagi aholi maskanlarining joylashishidagi hozirgi ko'rinish to'liq shakllandi. Bunday joylashishga sug'orish omilidan tashqari albatta tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ham ta'sir ko'rsatdi. Farg'ona vodiysi hududining kichikligiga qaramasdan yuqoridagi omillar ta'sirida aholi maskanlarining (qishloqlarning) joylanishida quyidagi ekologik jihatdan ahamiyatli bo'lgan o'ziga xosliklarni kuzatish mumkin.

Birinchidan, Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida aholi maskanlarining daryo vodiylarida uzun, tor, tasmasimon holatda joylanishi kuzatiladi. Namangan uyezdidagi Podshootasoy, Chortoqsoy, Chodaksoy, G'ovasoy, Kosonsoy daryolari vodiysidagi qishloqlarning lentasimon ko'rinishdagi joylashganligini XIX asrning oxirida ishlangan quyidagi geografik haritadan ko'rish mumkin (1-rasm).




1-rasm. Aholi maskanlarining daryo havzalari bo'ylab lentasimon joylashishi (A.Middendorf bo'yicha, 1882).

GEOGRAFIYA

Bunday joylashishning ekologik jihatdan ahamiyatli tomoni aholi maskanlari orasidagi aloqalarning gorizontali yo'lga qo'yilishidir. Bu davrdagi etnoekologik madaniyat mohiyatini qadimgi turkiydan qolgan «bir ariqdan suv ichgan» iborasini qo'llash orqali tushunish mumkin. Aloqalarda ekologik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga geografiya fani uchun xos bo'lgan havzali yondashuv tamoyili yordam bergan [10]. Bunday hududlarda "Hidoya" asaridagi daryo yoki ariqning yuqori va quyi qismida yashaydigan suvdan foydalanuvchilarni murosaga keltiruvchi tavsiyalar nihoyatda o'rinli va foydali bo'lgan [11].

Ikkinchidan, vodiydagi barcha daryolar hududning adir mintaqasidan o'tganidan so'ng konussimon yoyilmalarni hosil qilganligi. Bunga avvalo yoyilmalarning tipik namunasi sifatida So'x konussimon yoyilmasini keltirish mumkin. Shuningdek, Isfara, Shohimardonsoy, Isfayramsoy, Aravonsoy, Oqbo'yra, Moylisoy, Norin kabi daryolarning adirlar halqasidan chiqish joylaridagi konussimon yoyilmalarida ham yuqoridagi qonuniyat asosida joylashgan aholi maskanlari kuzatiladi (2-rasm).




2-rasm. So'x konussimon yoyilmasida qishloqlar konfiguratsiyasi (Masalskiy (1913-y.) bo'yicha)

Bu aholi maskanlarning joylashishida ijtimoiy ekologik jihatdan o'rganishga arzigulik jihati ularning orasidagi masofalarni va asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan sug'orishga yaroqli yer maydonlarining yetarli bo'lishini ta'minlanganligidir.

Uchinchidan, konussimon yoyilmalarda bir tekis joylashgan qishloqlarda savdo-madaniy aloqalari shakllanishi natijasida har bir yoyilmaning «markaziy maskani» shakllanganligidir. Uchinchi tipdagi aholi maskanlari ya'ni konussimon yoyilmalarning o'rta qismlarida, sug'orish tarmoqlarining quyi qismida «markaziy maskan»ga nisbatan joylashganligini ko'rish mumkin. Bunday markazlar vazifasini Isfara, Qo'qon, Oltiariq, Marg'ilon, Asaka, Andijon, Uchqo'rg'on kabi shaharlar bajaragan. Odatda markaziy maskanning konussimon yoyilmaning o'rta qismida joylashganligi uning iqtisodiy omillar (savdo markazi, ta'lim, sog'liqni saqlash, boshqaruv, transport tuguni) ta'sirida yiriklashib ketishiga olib kelgan. Bunday tipdagi aholi maskanlariga Marg'ilon shahri va uning atrofidagi qishloqlarning joylashishi misol bo'ladi.

To'rtinchidan, Markaziy Farg'onadagi cho'lli landshaftlarda yakka holdagi yirik qishloqlar shakllanganligi. Bunday aholi maskanlariga Bo'z, Yozyovon, Mingbuloq kabi aholi maskanlari hozirda ham tuman markazlari vazifasini bajaradi. Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashmagan qishloqlar vodiya ko'p uchramasa-da, aralash vazifani bajaruvchi turlar keng tarqalgan. Farg'ona vodiysi atrofidagi tog'lardan boshlanadigan daryolarning yuqori qismidagi qishloqlar «muqaddas ziyoratgohlar» (etnoekologik yondashuvda qo'riqxonalar) vazifasini bajaradi. U qishloqlarning toponimida islom diniga taalluqli bo'lgan aziz avliyolar, payg'ambarlar nomlari ko'pchilikni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashmagan ikkinchi qishloqlar guruhi tarkibida bozor va karvon so'zlari ko'p qatnashadi. Bunday qishloqlar aholisi ko'proq savdogarlik bilan mashg'uldir.

Boshqa etnoslar tomonidan o'zga landshaftlarda yaratilgan aholi maskanlari rejasi odatda ko'proq mudofa maqsadlariga bo'ysundirilgan bo'ladi. Misol tariqasida Farg'ona shahrini keltirish mumkin. Shahar loyihasi 1877-yil 8-martda gubernatorlik shtabida muhokama qilingan, reja vaqtli matbuotda e'lon qilingan, unda mahalliy aholi vakillari ham qatnashgan. Shaharga 1877-yil 18-iyunda asos solingan, shu kunda shahar qurish loyihasi tastiqqlangan. Shahar qurish g'oyasi – M.D.Skobelev tomonidan taklif qilingan. Shaharning asoschisi, uning birinchi quruvchisi, gubernator A.K.Abramov bo'lgan. Shahar plani bo'yicha qala va uni oldidagi maydon (esplanada) dan tarqaluvchi radianal-konsentrik shakldagi ko'chalardan iborat bo'lgan. Shaharning asosiy qismi Marg'ilonsoyning chap sohilida bo'lib, soy qisman mudofaa vazifasini ham bajargan, o'ng sohilga dehqon bozori, kasalxona, harbiy mahkama joylashtirilgan (3 -rasm).



3.- rasm. Farg'ona shahar plani (1890-y.)

Shu o'rinda ko'p yillar shaharni timsoliga aylangan chinorlar ekilishiga to'xtalib o'tish mumkin. Shaharga dastlab qurilgan yillarda terak ekilgan (4-rasm). Biroq, uning tez yetilishi, sinishi ko'p kuzatilganligi sababli boshqa daraxt ekish g'oyasi muhokama qilingan. Muhokamada qatnashgan mahalliy aholi vakillaridan Yormozor qishlog'i vakillari yong'oq va o'rik ekishni tavsiya qilishgan, Marg'ilon shahri vakillari bu hududlarda chinor yaxshi o'sishini, soya-salqin landshaft yaratishini e'tiborga olib, shaharga chinor ekishni taklif qilgan. Natijada shaharga ommaviy ravishda chinor ekish boshlangan. Bir necha yillardan so'ng chinorlar shaharga ko'rk bera boshlaganda, bu taklif asoschilaridan biri bo'lgan marg'ilonlik Muhammad Halil Madazim o'g'li Makkaga xaj safariga borish uchun bepul yo'llanma bilan taqdirlangan [12].



4-rasm. Farg'ona shahridagi yo'l chetiga ekilgan teraklar (Masalskiy, 1913-y. bo'yicha)

Shahar toponimikasi o'tgan yillar davomida bir necha marta o'zgargan. Dastlab shahar bunyod etilgandan boshlab 1907-yil dekabr oyigacha "Yangi Marg'ilon", 1908-yildan 1924-yil

GEOGRAFIYA

noyabr oyigacha “Skobelev”, 1924-yil dekabrda boshlab esa “Farg‘ona” nomlari bilan atalib kelinmoqda. Shahardagi qurilishlar orasida biz uchun qadri bo‘lgan universitetning bosh binosi ham bo‘lib, 1902-1904-yillarda G.M.Svarichevskiy loyihasi bo‘yicha bunyod etilgan. Mazkur binodan hozirga qadar ta‘lim muassasining binosi sifatida foydalanib kelinmoqda.

Mahalliy aholining landshaft imkoniyatlaridan keng foydalanishi tabiatdan foydalanishni vujudga kelishining ilk bosqichlarida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu vaqtda paydo bo‘layotgan xo‘jalik faoliyati va aholi markazlarining ekologik potentsiali (tabiiy demografik imkoniyati) yuqori bo‘lgan, keyinchalik esa iqtisodiy omillarning roli kuchayib borgan. Iqtisodiy omillarning kuchayishida yana daryo omili yetakchi rol o‘ynagan, ya‘ni, sanoatlashuvda eng muhim joylashuv omili ham suv resursi hisoblangan.

XULOSA. Yuqorida landshaft yondashuvning nazariy jihatlarida aholining hududiy joylashishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar Farg‘ona vodiysi shaharlari misolida ko‘rsatib o‘tildi. Ularga geomorfologik, iqlim, tuproq va gidrologik omillar kirishi va ularni aholining hududiy joylashuvini cheklovchi yoki chorlovchi ta‘sir etishini makon va zamonda o‘zgarib borishini o‘rganish navbatdagi dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаев У. Валихонова Г. Фарғона водийси аҳолиси: Этник таркибининг шаклланиши ва этномаданий муносабатлар тарихи. Т.: Navroz, 2016 (Abdullaev U. Valixonova G. The population of the Fergana Valley: the formation of ethnic composition and the history of ethnocultural relations. Т.: Navroz, 2016)
2. Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. / Соч., Т.3. - М.: Наука. 1965. -С.5-31. (Bartold V.V. On the history of irrigation in Turkestan. / Soch., V.3. - М.: Science. 1965. -p.5-31.)
3. **Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. – Казан, 1876. (Nalivkin V.P. Brief history of the Kokand Khanate. - Kazan, 1876.)**
4. Шаниязов К.Ш. К этнической истории Узбекского народа (Историко-этнографическое исследование на материалах Кипчакского компонента). Т.: Фан, 1974. (Shaniyazov K.Sh. To the ethnic history of the Uzbek people (Historical and ethnographic research on the materials of the Kipchak component). Т.: Fan, 1974.)
5. Губаева С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начале XX в. Т.: Фан, 1983. (Gubaeva S. Ethnic composition of the population of Fergana in the late 19th - early 20th centuries. Т.: Fan, 1983)
6. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX-начале XX в. (Этнокультурные процессы). Т.: Фан, 1991 (Gubaeva S.S. The population of the Ferghana Valley in the late XIX-early XX century. (Ethnocult processes). Т.: Fan, 1991)
7. Гумелев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. Л.: Гидрометеиздат, 1990. (Gumilyov L.N. Ethnogenesis and biosphere of the Earth. L.: Gidrometeoizdat, 1990)
8. Холиков Р.Й. Изменение ландшафтов Ферганской долины под влиянием хозяйственной деятельности человека. Дис. канд. геогр. наук. - Л.: ЛГУ, 1989. (Kholikov R.Y. Changes in the landscapes of the Fergana Valley under the influence of human economic activity. Diss. PhD. Sciences. - L.: LSU, 1989.)
9. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. (перевод с нем.) СПб., Изд. Императорский Академии наук, 1882. (Middendorf A.F. Essays on the Ferghana Valley. (translated from German) SPb., Ed. Imperial Academy of Sciences, 1882)
10. Ҳикматов Ф.Ҳ., Шожалилов Ш.Ш., Айтбаев Д.П., Аденабаев Б.Е. Ўрта Осиё сув илми тарихидан. – Тошкент: «Тошкент ислом университети» НМБ, 2008. (Hikmatov F.H., Shojalilov Sh.Sh., Aytbaev D.P., Adenbaev B.E. From the history of water science in Central Asia. –Tashkent: “Tashkent Islamic University” NMB, 2008)
11. Маргинани Б. Хидоя. Комментарии мусульманского права: в 2 ч. Ч. 2. Т. III-IV/пер. с. англ.; под ред. Н.И.Гродекова; отв.ред., авт. предисл., вступ. ст. и науч. комм. проф. А.Х.Саидов. – М.: Волтерс Клувер, 2010. (Marginani B. Khidoia. Comments on Muslim law: in 2 hours. Part 2. Vol. III-IV / per. With. English; ed. N.I. Grodeкова; otv.red., ed. foreword, introductory Art. and scientific comm. prof. A.Kh. Saidov. – М.: Wolters Kluver, 2010)
12. Усмонов Е. Жаннат боғи. Фарғона, 1995. 95-бет. (Usmonov E. The Garden of Eden. Fergana, 1995. p. 95.)